

MEHNAT TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIKKA, MEHNAT HAQIDAGI BOSHQA HUQUQIY HUJJATLARGA HAMDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARIGA RIOYA ETILISHI USTIDAN DAVLAT NAZORATI VA TEKSHIRUVI

Musoyev Ilhom Hasan o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: ilhombekmusoyev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada mehnat qonun hujjatlariga rioya etilishi, mehnat muhofazasi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish asoslari va tartibi tahlil qilinib, mazkur yo‘nalishdagi dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: mehnatni muhofazasi, davlat nazorati, tekshiruv, mehnat inspektorlari.

Bugungi kunda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga tizimli va bir xilda amal qilish mazkur sohadagi eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lmoqda. Tak’idlash joizki, mehnatni muhofaza sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoillarga asoslanadi;

- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo‘nalishlari bilan muvofiqlashtirish;
- mulk va xo‘jalik yuritish shakllaridan qati nazar barcha ta’lim muassalari uchun mehnatni muhozasi qilish sohasida yagona talabni belgilash;
- mehnatning ekologik jihatdan xavfsiz sharoitlarni yaratilishini va ish joylarida atrof muhit holati muntazam nazorat etilishini ta’minlash;
- ta’lim muassalarida mehnatni muhofaza qilish talablari bajarilishi ustidan nazorat qilish hisoblanadi.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

xodimning hayoti va sog‘lig‘i ustuvorligini ta’minlash;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

barcha korxonalar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni belgilash;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

xodimlarni himoya qiluvchi xavfsiz texnika, texnologiya va vositalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishini rag'batlantirish;

fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or milliy va xorijiy tajribadan foydalanish;

ishlab chiqarishdagi baxsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish.

Shuningdek, mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Kambag'likni qisqartirish va bandlik vazirligi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlariga muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi¹.

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizomga muvofiq vakolatli organning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha (bosh) davlat texnik inspektorlari hamda mehnat sharoitlari bo'yicha (bosh) davlat ekspertlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kasaba uyushmalarining inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Korxonada xodimlarning mehnatni muhofaza qilishga hamda ishlarni xavfsiz olib borishga doir me'yorlar, qoidalar va yo'riqnomalarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kasaba uyushmasi qo'mitasining yoki xodimlarning boshqa vakillik organlarining hisobot-saylov majlisida (konferensiyasida) saylanadigan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil tomonidan amalga oshiriladi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 536-moddasiga asosan davlat mehnat inspektorlari mehnat to'g'risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga hamda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini va tekshiruvini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining hududida ish beruvchilarni qonunchilikda belgilangan tartibda rejali hamda rejadan tashqari tekshiruvlardan o'tkazadi².

¹ O'RQ-410-sonli "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3031427>

² O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>

Mehnat to'g'risidagi qonunchilik, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar va mehnatni muhofaza qilish qoidalari talablariga rioya etilishi, davlat mehnat inspektorlarining tekshiruvlar davomida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmalarining ish beruvchilar tomonidan bajarilishi tekshirish predmetidir.

Shuning, eng muhimi Davlat mehnat inspeksiyasining ko'rsatmalari, taqdimnomalarini va boshqa hujjatlarini ijro etmaslik, shuningdek Davlat mehnat inspeksiyasining faoliyatiga aralashish hamda uning xodimlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning qonuniy ijro etilishiga to'sqinlik qilish maqsadida har qanday shaklda ta'sir o'tkazish taqiqlanadi hamda qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 255-moddasiga muvofiq, Davlat mehnat inspeksiyasining mansabdor shaxslari ushbu Kodeksning 49, 492, 493, 50, 501, 51 va 229-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi¹.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va ma'muriy jazo choralarini qo'llashga quyidagilar haqlidir:

mehnat to'g'risidagi qonunchilikni va aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun — mehnat bo'yicha davlat inspektorlari, mehnat bo'yicha davlat huquqiy inspektorlari;

mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun — mehnat bo'yicha davlat inspektorlari, mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari, mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertlari.

Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari soni 19494 ming kishini tashkil etgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda 0,8 foizga ko'paygan².

Yuqoridagiga muvofiq, mehnat resurslarining ortgani ularni mehnat qonunchiligiga rioya qilishni ta'minlash dolzarbligi yanada ortganligidan dalolat beradi. Maxsus vakolatli organ sifatida Davlat mehnat inspeksiyasining inspektorlari soni va ularning mehnatni muhofaza qilish qoidalari rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi amalga oshirish doirasi mazkur o'zgarishlarga mutanosib ravishda amalga oshirilmayabdi. Mazkur masalani hal qilish bilan bir qatorda qonunchilikda bir qator huquqiy asoslarni ham amalga kiritishni talab etadi. Xususan, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish

¹ O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks // <https://lex.uz/acts/-97664>

² <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/35411-respublikamizda-mehnat-resurslari-soni-qancha>

qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruv amalga oshirish tartiblari hamda tekshirish natijalarini rasmiylashtirish, huquqiy chora ko‘rish asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan mehnat inspektorlariga tegishli vakolatlar ularga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishga yetarli bo‘lmayabdi. Shu sababli, qonunchilikda maxsus vakolatlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish orqali yuqorida nazarda tutilgan muamollarga o‘ziga xos yechim berilgan bo‘ladi.

Xulosa qilib ta’kidlash joizki, yangi tahrir qabul qilingan Mehnat kodeksida aks ettirilgan mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar faoliyatini mavjud resurslar va yuklatilgan vazifa, funksiyalarni inobatga olgan holta tashkil etilmasa, huquqni qo‘llash jarayonidan mehnat muhofazasini ta’minlash yetarli darajada olib borilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘RQ-410-sonli “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3031427>
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
3. O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks. // <https://lex.uz/acts/-97664>
4. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/35411-respublikamizda-mehnat-resurslari-soni-qancha>